



«[HTTPS://WWW.INSTAGRAM.COM/APAY.UZ/](https://www.instagram.com/apay.uz/)» IJTIMOIY TARMOG'IDAGI FAOLLIK UCHUN APS BONUSLARI NOMLI YUTUQLI O'YINNI O'TKAZISH QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu Qoidalar «<https://www.instagram.com/apay.uz/>» ijtimoiy tarmog'ida "Faollik uchun APS bonuslari" Yutuqli o'yinini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilab beradi (ushbu Qoidalar matnida keyingi o'rinlarda "Yutuqli o'yin" deb yuritiladi). Yutuqli o'yin lotereya hisoblanmaydi, tavakkalchilik elementlarini o'z ichiga olmaydi, foyda yoki boshqa daromad olish maqsadini ko'zlamaydi va mazkur Qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 9-yanvardagi 21-sonli Litsenziyasi asosida to'lov tashkiloti maqomiga ega, to'lov tashkilotlari reyestrda ro'yxatdan o'tgan, "A-Pay" elektron pul tizimining operatori "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MCHJ Yutuqli o'yin tashkilotchisi (keyingi o'rinlarda Tashkilotchi) hisoblanadi. Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Qoidalarga amal qiladi. Yutuqli o'yinni maksimal darajada samarali o'tkazish maqsadida Tashkilotchi boshqa shaxslarni Yutuqli o'yinni tashkil etish ishlariga jalb qilishi mumkin.
- 1.3. Yutuqli o'yin O'zbekiston Respublikasi hududida 2023-yil 12-oktyabr (Toshkent vaqti bilan) soat 11.00 dan 2023-yil 7-dekabr (Toshkent vaqti bilan) soat 16.00 gacha bo'lgan davrda o'tkaziladi. Yutuqli o'yin qoidalari bilan Tashkilotchining <https://a-pay.uz> saytida to'liq tanishish mumkin.
- 1.4. Yutuqli o'yin Ishtirokchilarining Yutuqli o'yinda ishtirok etishlari ushbu Qoidalarni to'liq qabul qilganliklari va ularga rozilik bildirganliklarini anglatadi. Yutuqli o'yinda faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.
- 1.5. Yutuqli o'yin Tashkilotchining Instagram ijtimoiy tarmog'idagi quyidagi rasmiy sahifasida o'tkaziladi: <https://www.instagram.com/apay.uz/> (keyingi o'rinlarda "Hamjamiyat" deb yuritiladi).
- 1.6. Yutuqli o'yinda ishtirok etish bepul, Ishtirokchiga kafolatlangan Sovrinlarni olish huquqini bermaydi.
- 1.7. Sovrin jamg'armasi Yutuqli o'yin Tashkilotchisi mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.
- 1.8. Yutuqli o'yin "A-Pay" elektron pul tizimi mashhurligini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

2. YUTUQLI O'YIN ISHTIROKCHILARI

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan, uning hududida yashovchi har qanday 18 yoshga to'lgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs Yutuqli o'yinda ishtirok etishga haqli.
- 2.2. Tashkilotchining xodimlari va vakillari Yutuqli o'yinda ishtirok etishlari mumkin emas.
- 2.3. Qoidalarda ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan shaxslar Yutuqli o'yinda qatnashish va Yutuqli o'yin Sovrinlarini olish huquqiga ega emaslar.



- 2.4. Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ma'lumotlar va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun Yutuqli o'yin Ishtirokchisi javobgardir. Yutuqli o'yin Ishtirokchisi Yutuqli o'yinda ishtirok etish bilan bog'liq o'z huquqlarini uchinchi shaxsga o'tkazish va/yoki biron-bir tarzda topshirishga haqli emas.
- 2.5. Yutuqli o'yin ishtirokchilari Instagram ijtimoiy tarmog'ida ro'yxatdan o'tish va undan foydalanish qoidalari bilan tanish ekanliklarini tasdiqlaydilar.
- 2.6. Qoidalarga o'zgartirishlar kiritilgan yoki Yutuqli o'yin muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar Tashkilotchining rasmiy veb-sayti va Hamjamiyatda joylashtiriladi. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi Yutuqli o'yin qoidalari ushbu Qoidalarda ko'rsatilmagan qo'shimcha vositalar (flayerlar, nashrlar va boshqalar) orqali ham Ishtirokchilarga yetkazishi va Yutuqli o'yinda ishtirok etishga taklif qilishga haqli. Yutuqli o'yin haqida qisqacha ma'lumotni Hamjamiyatning yangiliklar tasmasida ham topish mumkin.
- 2.7. Yutuqli o'yinda ishtirok etish fakti shuni anglatadiki, Yutuqli o'yin Ishtirokchisi Yutuqli o'yinda qatnashgan yoki g'alaba qozongan taqdirda Yutuqli o'yinda ishtirok etish munosabati bilan tayyorlangan materiallar, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlar (to'liq ismi-sharifi), fotosuratlar, videoyozuvlar va intervyular Yutuqli o'yin Tashkilotchisi tomonidan ommaviy axborot vositalarida (bosma nashrlar, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda) reklama maqsadlarida e'lon qilinishiga so'zsiz roziligini bildiradi va buning uchun qo'shimcha haq talab qilmaydi.

3. YUTUQLI O'YINDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

- 3.1. Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun Ishtirokchi Instagram.com ijtimoiy tarmog'ida shaxsiy akkauntiga ega bo'lishi kerak.
- 3.2. Yutuqli o'yin ishtirokchisi bo'lish uchun:
 - 3.2.1. Tashkilotchining [instagram.com](https://www.instagram.com/apay.uz/) saytidagi <https://www.instagram.com/apay.uz/> sahifasiga obuna bo'ling;
 - 3.2.2. Tashkilotchining Yutuqli o'yinga doir postiga layk bosing;
 - 3.2.3. Tashkilotchining Yutuqli o'yin posti ostidagi sharhlarda uchta do'stingizni belgilang (tasodifiy foydalanuvchilar, multi-akkauntlar, brend, do'kon sahifalari va shunga o'xshash sahifalardan tashqari).
- 3.3. Yutuqli o'yin Ishtirokchisi Yutuqli o'yin muddati davomida Instagram.com ijtimoiy tarmog'i obunachisi bo'lib qolishi shart.
- 3.4. Yutuqli o'yin Ishtirokchisi Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchining Yutuqli o'yin shartlariga muvofiqligini tekshirish uchun Yutuqli o'yin davomida Instagram.com ijtimoiy tarmog'idagi o'z sahifasiga kirish huquqini ochib qo'yishi kerak.





4. YUTUQLI O'YINDA QATNASHISHGA RUXSAT BERMASLIK SHARTLARI

- 4.1. Shaxsning Yutuqli o'yin talablariga javob bermasligi va/yoki shaxs tomonidan Qoidalarda belgilangan talablarni bajarmasligi.
- 4.2. Yutuqli o'yin shartlariga ko'ra do'stlarni belgilamasdan sharh qoldirish Ishtirokchi maqomiga ega bo'lish huquqini bermaydi.
- 4.3. Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun Instagram.com ijtimoiy tarmog'ida ro'yxatdan o'tishda dolzarb bo'lmagan (tasdiqlanmagan) va (yoki) noaniq (noto'g'ri) ma'lumotlarning taqdim etilishi, keyinchalik dolzarb bo'lmagan (tasdiqlanmagan) va (yoki) noaniq (noto'g'ri) ma'lumotlarning taqdim etilishi yoki umuman taqdim etilmaslik bilan tenglashtiriladi. Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan talab qilingan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishni rad etish to'g'risidagi bayonoti, bu shaxsning Tashkilotchi tomonidan Yutuqli o'yin ishtirokchilariga qo'yilgan talablarga muvofiqligini tekshirishga imkon bermaydi.
- 4.4. Yutuqli o'yin ishtirokchisining yopiq sahifasi.
- 4.5. Bitta a'zo tomonidan bitta ijtimoiy tarmoqda bir nechta akkauntlardan foydalanish.
- 4.6. Aldash yo'li bilan Yutuqli o'yin Ishtirokchilari safiga qo'shilish (qasddan yolg'on ma'lumot berish).
- 4.7. Yolg'on, firibgarlik harakatlarini amalga oshirish, shu jumladan Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun har qanday avtomatlashtirilgan yoki maxsus tashkil etilgan tizimlardan foydalanish (jumladan, layk almashish va Yutuqli o'yinni avtomatik ravishda repost qilish uchun ilovalar va boshqalar).
- 4.8. Tashkilotchi sabablarini tushuntirmasdan, o'z adolat tuyg'usiga tayangan holda, Ishtirokchining Yutuqli o'yinda ishtirok etishiga ruxsat berish yoki taqiqlash huquqiga ega.

5. G'OLIBLARNI ANIQLASH

- 5.1. Yutuqli o'yin g'oliblari aniqlash maxsus xizmat – randomayzer yordamida amalga oshiriladi.
- 5.2. Yutuqli o'yin Ishtirokchilari o'rtasida sovrinlar o'ynalishi har payshanba kuni (19.10.2023r., 26.10.2023r., 02.11.2023r., 09.11.2023r., 16.11.2023., 23.11.23., 30.11.23., 07.12.2023.) jonli efirda soat 11:00 ga qadar bo'lib o'tadi.
- 5.3. Har haftada Yutuqli o'yin Ishtirokchilari orasidan 10 (o'n) nafar Yutuqli o'yin g'oliblari aniqlanadi.
- 5.4. Yutuqli o'yinning har bir g'olibi A-Pay Elektron pul tizimining 100.000 APS bonusi miqdorida Sovringa ega bo'ladi. APS bonuslari naqd pul, qimmatli qog'ozlar emas va ularni naqd pulga almashtirish, meros qilib qoldirish, pul yoki boshqa sovrinlarga almashtirish mumkin emas.
- 5.5. G'oliblar aniqlangach, natijalar bir kun ichida alohida postda e'lon qilinadi. Yutuqli o'yin Ishtirokchilari Tashkilotchi tomonidan e'lon qilingan/yuborilgan xabarlarini mustaqil ravishda kuzatib boradilar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Ishtirokchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi Hamjamiyatlari va shaxsiy akkauntlarida Yutuqli o'yinning borishi, uning natijalari to'g'risida bildirishnomalar mavjudligini, o'zgarishlar, Sovrinlarni olish va ulardan foydalanish shartlari tekshirib boradi. Tashkilotchi tomonidan yuborilgan/joylashtirilgan/e'lon qilingan xabarlar bilan o'z vaqtida tanishib borish mas'uliyati Ishtirokchi zimmasiga yuklanadi.



- 5.6. Sovrindan foydalanish uchun G'olib Yutuqli o'yinda g'alaba haqidagi xabar Tashkilotchi tomonidan e'lon qilingan/yuborilgan kundan boshlab 20 (yigirma) kalendar kun ichida A-Pay elektron pul tizimida ro'yxatdan o'tishi va o'zini identifikatsiya qilishi kerak. A-Pay elektron pul tizimida ro'yxatdan o'tish va identifikatsiya qilish Tashkilotchining Sovrindan foydalanish imkoniyati kafolati hisoblanadi. G'olibga Sovrindan foydalanish shartlari to'g'risida barcha kerakli ma'lumotlarni yuborish Sovrin G'olibga topshirilganligini anglatadi.
- 5.7. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan noto'g'ri ma'lumotlar uchun javobgar emas. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi G'olib bilan ijtimoiy tarmoq orqali bog'lana olmagan va G'olib 20 (yigirma) kalendar kun ichida mustaqil ravishda Tashkilotchi bilan bog'lanmagan taqdirda, Sovrin talab qilinmagan deb topiladi va Tashkilotchi uni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etadi. Yutuqli o'yin G'olibi G'olib deb e'lon qilingan kundan e'tiboran 20 (yigirma) kalendar kun ichida "A-Pay" elektron pul tizimida ro'yxatdan o'tmasa, G'olibning sovrini bekor qilinadi.
- 5.8. Agar G'olib sovrindan bosh tortsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali Tashkilotchiga o'z to'liq ismi va sovrinni rad etish sabablarini ko'rsatgan holda xabar yozishi kerak. Bunday holda, G'olibning sovrini bekor qilinadi.
- 5.9. Sovrinni almashtirish, o'zgartirish yoki uning pul ekvivalentini olish mumkin emas.

6. SHAXSIY MA'LUMOTGA ISHLOV BERISH

- 6.1. Yutuqli o'yinda ishtirok etib turib, Ishtirokchi Tashkilotchiga avtomatlashtirilgan, shuningdek, avtomatizatsiya vositalaridan foydalanmagan holda olingan shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berilishiga, jumladan, to'plash, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, egasizlantirish, bloklash, yo'q qilish; shuningdek, Yutuqli o'yinda ishtirok etishi munosabati bilan tayyorlangan surati, videotasviri va intervyusiga qo'shimcha haq to'lamagan holda shaxsiy ma'lumotlarini (famiyasi, ismi, sharifi, surati, yashayotgan shahri) Tashkilotchining saytida va ijtimoiy tarmoqlarida ishlatish va nashr etishga o'zining so'zsiz roziligini bildiradi. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish va topshirishdan maqsad: Yutuqli o'yinda ishtirok etishdan iborat. Qayd etilgan kelishuv O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq, Ishtirokchining qo'shimcha roziligini olmagan va unga buning uchun qandaydir haq to'lamagan holda belgilanadigan ko'rsatilgan ma'lumotdan iborat tegishli axborot yoki hujjatlarni saqlash muddati tugaguniga qadar amal qiladi. Kelishuv Ishtirokchi tomonidan tashkilotchining manziliga yozma da'vo jo'natish yo'li bilan chaqirib olinishi mumkin.
- 6.2. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik Yutuqli o'yin Ishtirokchisi tomonidan muddatsiz beriladi. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan Tashkilotchi yoki Tashkilotchi Yutuqli o'yin o'tkazilishi munosabati bilan faqat Yutuqli o'yinga aloqador maqsadlar uchun jalb qilgan uchinchi shaxslar foydalanadi.
- 6.3. Ijtimoiy tarmoqlar aloqaning va kishilarni izlashning universal vositasi hisoblanganligi sababli ijtimoiy tarmoq profili egasi nashr etadigan ayrim ma'lumotlarni yashirish uchun ochiq hisoblanib, bu bilan Ishtirokchi ijtimoiy tarmoqda uning ishlash qoidalariga ko'ra, ro'yxatdan o'tishga rozi bo'ladi. Instagram.com ijtimoiy tarmog'ida profilga (akkaunt) ega bo'lgan Ishtirokchi uning tomonidan nashr etilayotgan ma'lumotlarga nisbatan o'z profilining maxfiylik sozlamalarini boshqarish imkoniga ega bo'ladi (ochiq ma'lumotlardan tashqari).
- 6.4. Ishtirokchi ma'lumotlar bazasiga ismini qo'shishga ruxsat etish bilan, Tashkilotchilarga o'zining shaxsiy ma'lumotlarini berib, uning tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar: e-mail, ismi, aloqaga kirishish uchun telefon raqamiga ishlov berilishiga o'zining roziligini bildiradi.





7. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 7.1. Tashkilotchining Ishtirokchilar oldidagi javobgarligi Ishtirokchi olish huquqiga ega bo'lgan mukofot bilan chegaralanadi.
- 7.2. Tashkilotchi Yutuqli o'yin shartlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tashkilotchi barcha o'zgartirishlar haqida sayt va/yoki ijtimoiy tarmoqlarda xabarni e'lon qilish orqali alohida ma'lum qiladi.
- 7.3. Tashkilotchi tomonidan Yutuqli o'yin matnida yozilgan qoidalar Yutuqli o'yinda ishtirok etishning yagona rasmiy Qoidasi hisoblanadi. Ushbu qoidalar va/yoki mazkur qoidalar bilan tartibga solinmagan masalalarni har xil talqin etilishiga yo'l qo'yiladigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda talqin va/yoki izohlash to'g'risidagi yakuniy qarorni bevosita Yutuqli o'yin Tashkilotchisining o'zi qabul qiladi.
- 7.4. Ishtirokchining tajovuzkor xatti-harakati (beadab, qo'pol yoki haqoratomuz so'zlar) kuzatilsa, Tashkilotchi foydalanuvchiga ijtimoiy tarmoqlarda muloqotga kirishini noma'lum muddatga uni oldindan ogohlantirmagan holda taqiqlab qo'yishga (qora ro'yxatga kiritib qo'yish, bloklash) haqlidir.
- 7.5. Tashkilotchi o'zining shaxsiy xohishiga ko'ra Ishtirokchilarga sabablarini tushuntirmagan va ular bilan yozishmalarga kirishmagan holda Yutuqli o'yin Ishtirokchilarining har qanday harakatlarini haqiqiy emas deb e'tirof etishi, shuningdek, Tashkilotchida mazkur shaxs ma'lumotlarni soxtalashtirayotgani yoki avtomatlashtirilgan harakatlar bilan shug'ullanishi haqida asosli shubha tug'ilgan taqdirda, shu bilan birga, Ishtirokchi ushbu qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qoidalarini buzib harakat qilganida uning kelgusida Yutuqli o'yinda qatnashishini taqiqlash huquqiga ega.
- 7.6. Qoidalarda bayon etilmagan vaziyatlarda Tashkilotchi o'z xohishiga ko'ra harakat qilishga haqlidir.

